OLIV TA'LIM MUASSASALARINING ZAMONAVIY SHAROITLARDI RAQOBATBARDOSHLIGI: NAZARIY JIHA TLARI VA AMALIY BOSHQARUV STRATEGIYALARI.....	1002
<b>Adizov Bobir Baxtiyrovich</b>	
ZAMONAVIY SHAROITDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI RISKLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1005
<b>Sirojiddinov Kamoliddin Ikromiddinovich, Nasritdinov Bekzod Xusnutdinovich</b>	
NAMANGAN VILOYATIDA QURILISH KLASTERNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI VA ISTIQBOLLI MANBALARI.....	1011
<b>Abduraxmanov Muxtorali Abduvoxidovich</b>	
ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ.....	1016
<b>Авезова Шахноза Махмуджановна</b>	
MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHGA TA'SIR KO'RSATADIGAN OMILLAR.....	1022
<b>Obilov Mirkomil Rashidovich</b>	



“O‘ZBEKISTONDA TURIZMNING MADANIY IDENTIKLIKKA TA’SIRI: SOTSIOLOGIK TAHLIL” .....	1028
Alijonova Nargiza Rashidjon qizi	
STATISTICAL ANALYSIS OF CREDIT INTEREST RATES.....	1034
Abdullayev Shakhobiddin Shamsiddinovich	
QISHLOQ XO‘JALIGIDA LOGISTIKA XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH METODLARI VA SAMARALI TA‘MINOT ZANJIRI MODELI.....	1037
Olimova Bahora Shuxratovna	
INNOVASION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI.....	1042
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT BAZASI BARQARORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMIL SIFATIDA FOIZ SIYOSATI VA UNING AMALIY JIHATLARI.....	1047
Axmedova Dilafro‘z Elshodovna	
B2BDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALAR.....	1053
Abdubotirova Madinaxon	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИННОВАЦИОННО - ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ.....	1059
Баходирова Хилола Баходировна	
RAQOBATBARDOSH MAHSULOT ISHLAB CHIQRISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANISH.....	1063
Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, Abdurazakova Diyora	
ENERGIYA XARAJATLARINI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY SAMARASI.....	1070
Urmanbekova Iroda Farxodovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF REMOTE BANKING SERVICES IN THE CONTEXT OF BANKING TRANSFORMATION .....	1075
Jabborov Bahriddin Rashidovich	
MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY-XO‘JALIK FAOLIYATINI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH TARTIBI.....	1079
G‘ofurov Iskandar Abduraxmonovich	
BANKLARNING INVESTITSIYA RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH YO‘LLARI .....	1084
Yuldashev Erkin Xusanovich	
MA‘LUMOTLAR BAZASINING RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAGI AHAMIYATI.....	1090
Maxamadiyev M. M.	
УСТОЙЧИВОСТЬ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ: АНАЛИЗ СТРАТЕГИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ АКИБ «ИПОТЕКА-БАНК» ПОСЛЕ ВХОЖДЕНИЯ В OTR GROUP.....	1095
Каримова Нуржахон Олим кизи	
O‘ZBEKISTON OLIY TA‘LIM MUASSASALARIGA XORIJLIK TALABALARNI JALB ETISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1101
Sharopova Nafosat, Xolmamatov Diyorbek	
DAVLATNING IJOBIY IMIJINI YARATISHDA TURIZM VA XALQ DIPLOMATIYASINING STRATEGIK O‘RNI .....	1108
Kasimova Zilola G‘ulomiddin qizi	
JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUASSASALARIDA MOLIYAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	1116
Toshmurodov Abdurauf Ravshanovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ТОПЛИВНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА УЗБЕКИСТАНА – 2025.....	1122
Ш.К.Жалилов	
“O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI” .....	1126
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA JARAYONLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1130
Xusanov Durbek Nishanovich	
TURIZM XIZMATLARI TUSHUNCHASI VA ULARNI INNOVATSION TASHKIL ETISHNING IQTISODIY MOHIYATI.....	1138
Najmidinov Azizbek Bahrom o‘g‘li	



MINTAQAVIY IQTISODIYOTDA TURISTIK INFRATUZILMANI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI.....	1143
<i>Xalmirzayev Axmadjan Axunovich, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi</i>	
O'ZBEKISTONDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING HOLATI VA TENDENSIYALARI.....	1149
<i>Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li</i>	
MARKETING KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI .....	1156
<i>Akramov Toxir Abdiraxmanovich</i>	
SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI .....	1161
<i>Adashev Azimjon Urinboyevich</i>	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI .....	1165
<i>Abdunazarova Dilshoda Akromovna</i>	
INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISHDA BOSHQARUV HISOBİ AXBOROTINING AHAMIYATI .....	1170
<i>Xushvaqtova Nozanin Nurbek qizi</i>	
OLIY TA'LIM TIZIMIDA INTEGRATSIYA JARAYONLARINI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI VA ULARNING TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDAGI AHAMIYATI.....	1177
<i>Ismoilova Feruza Kubaymurodovna</i>	
EKOMARKETING STRATEGIYALARI ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH .....	1182
<i>Qo'ziyev Jaloladdin Alisher o'g'li</i>	
ENSURING INNOVATIVE ECONOMIC SECURITY IN THE KHOREZM REGION: WASTE RECYCLING AND CIRCULAR ECONOMY .....	1186
<i>Mdraximova Shohista Bahrom qizi</i>	
KICHIK BIZNES FAOLIYATINI BAHOLASH ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1191
<i>Mavrulov Ravshan Nematjonovich</i>	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA ISLİM MOLIYASINI JORIY QILISHDA XORIYIY MAMLAKATLAR TAJIRIBASIDAN FOYDALANISH.....	1195
<i>Sultonov Baxtiyor Baxodirovich</i>	
MINTAQAVIY IMIJNI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	1201
<i>Duschanov Alisher Sherzod o'g'li</i>	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI .....	1206
<i>Opaev Bysen Aymanovich</i>	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNESNI INVESTITSION KREDITLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH.....	1212
<i>Yuldashev Fozil Turapovich</i>	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING XORIY TAJIRIBASI.....	1218
<i>M.M.Muminova</i>	
ИНТЕГРАЦИОННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ОПЕРАТОРА И ПРЕДПРИЯТИЙ МЕСТНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ .....	1223
<i>Худаярова Мехрангиз Мурадовна</i>	
TURIZMDA INDIVIDUALLASHTIRILGAN XIZMATLAR KONSEPSIYASI VA TAJRIBA TURIZMINING NAZARIY ASOSLARI.....	1230
<i>Raxmatov Aziz Tolipovich</i>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK EKSTERNALIYALARNI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1235
<i>Smaylova Zarafshan</i>	
XALQARO STANDARTLARDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI .....	1239
<i>Abdunazarov Dilshoda Akromovna</i>	



METALLURGIYA SANOATIDA EKOLOGIK TOZA TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH: MAQSADGA MUVOFIQLIGI VA NATIJALARI .....	1244
Karimov Ma'ruf Ixtiyorovich	
HUDDIY IQTISODIY O'SISH OMILLARINING EKONOMETRIK TAHLILI: SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA .....	1248
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Normurodov Asliddin Alijon o'g'li	
INDUSTRIAL RIVOJLANISHNING IQTISODIY VA EKOLOGIK OQIBATLARI .....	1258
Ataniyazova M.B.	
OLIY TA'LIM RAQOBATBARDOSHLIGINING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI ROLI .....	1263
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
СИСТЕМА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК КЛЮЧЕВОЙ ЭЛЕМЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	1269
Махмутходжаева Луиза Сайфуллоевна	
IQTISODIYOTDA "YASHIL" MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI .....	1274
Risqibekova Nozimaxon	
THE ROLE OF DIGITAL MARKETING IN BOOSTING TOURISM-RELATED BUSINESSES .....	1280
Farrukh Mamadiyurov Shukhratovich	
MINTAQA IQTISODIY BARQARORLIGINI BAHOLASH INDIKATORLARI VA USLUBLARI .....	1284
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich	
MAJOR INFLATIONARY FACTORS IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN AND ANTI-INFLATION POLICIES .....	1290
Koshanov Abdimurat Azat uli, Oralbaeva Diana Mukhit qizi	
ЦИФРОВАЯ ЭКОСИСТЕМА СОВРЕМЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА: МОДЕЛИ, МЕХАНИЗМЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ .....	1296
Бекова Азиза Алимовна	
SOLIQ MAJBURIYATLARINI HISOBGA OLISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	1301
Abdullayev Abror Bozarboyevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AKSIZ SOLIINING FISKAL VA IJTIMOYIY ROLI .....	1308
Abdulxayeva Shaxnoza Muxammadiyevna	
MINTAQAVIY IQTISODIYOTDA AGROTURIZMNI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI .....	1314
Egamberdiyeva Umriniso Tursunqulovna, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
OLIY TA'LIMDAGI RAQAMLI YECHIMLARNING SAMARADORLIGI VA UNI BAHOLASH MEZONLARI .....	1320
Abduraxmanova Malika Abdujaparovna	
SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA AKVAPARK VA SUZISH HAVZALARI QURILISHINI TAHLIL QILISH HAMDA TAVSIYALAR BERISH .....	1326
Olimjonov Firdavs	
FISKAL FEDERALIZM NAZARIYASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI .....	1332
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Alijonov Ahadjon Hasanboy o'g'li	
OILAVIY MUHITDA QIZLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOYIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O'ZBEKISTONDA) .....	1336
Qayimova Maftuna Tursunovna	
«YASHIL IPOTEKA» AMALIYOTI: XORIJIY TAJRIBALAR .....	1340
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРОЦЕССОВ ПРИНЯТИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА. ФОРМИРОВАНИЕ НОВОЙ ПАРАДИГМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ .....	1344
Бурханова Шахноза Бобировна	
QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI KENGAYTIRISH MASALALARI .....	1353
Abduvoxidova N.G., Karimova A.M.	
ISHLAB CHIQRISHNI DIVERSIFIKATSIYA ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ASOSIY MECHANIZMLARI .....	1359
Mirzarayimova Feruza Zokirjon qizi, Levakov Izzatulla Nematillayevich	



TO'G'RI SOLIQLARNI UNDIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI .....	1365
<b>Xo'jaqulov Ramshid Yunusovich</b>	
O'ZBEKISTONDA BANK TIZIMINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	1372
<b>Kasimova Zilolaxon Botir qizi</b>	



# O'ZBEKISTONDA BANK TIZIMINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

**Kasimova Zilolaxon Botir qizi**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Iqtisodiy statistika kafedrasida tayanch doktranti

Email: [kasimovazilolaxon000@gmail.com](mailto:kasimovazilolaxon000@gmail.com)

ORCID: [0009-0005-7597-6600](https://orcid.org/0009-0005-7597-6600)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi bank tizimining 2017-2025-yillar kesimidagi rivojlanish dinamikasi, tizim ko'lami (aktivlar, kapital, kredit qo'yilmalari) hamda aktivlar va passivlar tarkibidagi tarkibiy o'zgarishlar tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida bank tizimi aktivlarining yalpi ichki mahsulotga nisbati, kreditlar ulushi va moliyaviy manbalar tarkibi asosida tizimning moliyaviy holati va resurs bazasi barqarorligi baholanadi. Shuningdek, muammoli kreditlar ulushi hamda ROA va ROE ko'rsatkichlari orqali banklar faoliyatining rentabellik dinamikasi yoritiladi. Olingan natijalar bank tizimida aktivlar hajmining sezilarli kengayganini, resurslar tarkibida depozitlar ulushining ortib borayotganini hamda rentabellik ko'rsatkichlarining yillar bo'yicha o'zgaruvchanligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** bank tizimi, aktivlar, passivlar, depozitlar, kredit qo'yilmalari, muammoli kreditlar, ROA, ROE.

**Abstract.** This article analyzes the development dynamics of the banking system of the Republic of Uzbekistan over the period 2017–2025, focusing on the system's scale (assets, capital, and loan portfolios) and structural changes in assets and liabilities. The financial condition and stability of the resource base are assessed based on indicators such as the ratio of banking system assets to GDP, the share of loans, and the composition of funding sources. In addition, the dynamics of banking profitability are examined through the share of non-performing loans and the ROA and ROE indicators. The findings reveal a significant expansion of banking system assets, a growing share of deposits in the resource structure, and fluctuating profitability indicators over the years.

**Key words:** banking system, assets, liabilities, deposits, loan portfolios, non-performing loans, ROA, ROE.

**Аннотация.** В статье анализируется динамика развития банковской системы Республики Узбекистан в 2017–2025 годах, масштабы системы (активы, капитал, кредитные вложения), а также структурные изменения в составе активов и пассивов. В процессе анализа на основе показателей соотношения активов банковской системы к валовому внутреннему продукту, доли кредитов и структуры источников финансирования оценивается финансовое состояние и устойчивость ресурсной базы банковской системы. Кроме того, рассматривается динамика рентабельности банковской деятельности на основе показателей доли проблемных кредитов, ROA и ROE. Полученные результаты свидетельствуют о существенном расширении объема активов банковской системы, росте доли депозитов в структуре ресурсов и изменчивости показателей рентабельности по годам.

**Ключевые слова:** банковская система, активы, пассивы, депозиты, кредитные вложения, проблемные кредиты, ROA, ROE.

## KIRISH

Bank tizimi iqtisodiyotda resurslarni qayta taqsimlash, jamg'armalarni investitsiyaga yo'naltirish hamda to'lov tizimlarining uzluksiz faoliyatini ta'minlash orqali iqtisodiy o'sishning muhim drayverlaridan biri hisoblanadi. Shu bois bank tizimining ko'lami, resurs bazasi va barqarorligi, kredit portfeli sifati hamda rentabellik ko'rsatkichlari bo'yicha muntazam va tizimli tahlil olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston bank sektori so'nggi yillarda sezilarli rivojlanish sur'atlarini namoyon etmoqda. Xususan, tijorat banklarining jami aktivlari 866,8 trln so'mga yetgan bo'lib, kredit portfeli hajmi 582,2 trln so'mni tashkil etmoqda. Mazkur ko'rsatkichlar o'tgan yilga nisbatan qariyb 17 foiz o'sishni ifodalaydi. Shu bilan birga, bank tizimida davlat banklarining ulushi yuqoriligicha qolmoqda: ular jami aktivlarning taxminan 65 foizini va kredit portfelinig 68 foizini shakllantirmoqda.

Mazkur holatdan kelib chiqib, Prezidentimiz iqtisodiyotni barqaror moliyalashtirish, xususi sektorini rivojlantirish hamda xalqaro investitsiyalarni jalb etishda kapital bozori va bank tizimini isloh qilish muhim



ahamiyatga ega ekanini alohida ta'kidlab, ushbu yo'nalishlarda aniq vazifalar va topshiriqlar belgilab berdi. Jumladan, yaqin yillarda bank tizimini Basel III standartlariga bosqichma-bosqich o'tkazish, xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga moslashtirish hamda Moliyaviy barqarorlik kengashini tashkil etish rejalashtirilgan.

Mazkur maqola O'zbekiston bank tizimi rivojlanishining asosiy tendensiyalarini 2017-2025-yillar kesimida asosiy ko'rsatkichlar va strukturaviy tahlil orqali yoritishga qaratilgan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston bank tizimini tahlil qilish, uning samaradorligini oshirish, innovatsiyalar va raqamlashtirish imkoniyatlarini o'rganish hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash masalalari bo'yicha mahalliy olimlar tomonidan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlar bank tizimining rivojlanish bosqichlari, institutsional tuzilmasi va zamonaviy transformatsiya jarayonlarini har tomonlama yoritishga xizmat qiladi.

Xususan, M.O. Ahunov o'z ilmiy ishlarida O'zbekiston bank tizimining tarixiy rivojlanish bosqichlarini tahlil qilib, uning hozirgi holatini baholagan hamda tizimni takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni ilgari surgan. I. Toymukhamedov "Formation and Development of Banking Ecosystems in Uzbekistan" nomli monografik tadqiqotida bank tizimi ekotizimining shakllanishi, uning institutsional va nazariy asoslarini kompleks tarzda tahlil qilgan [8].

L.M. Tashpulatova, G.S. Tonyantsa va R.A. Djuraeva o'z tadqiqotlarida bank tizimida innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarning o'rnini, fintech yechimlari hamda elektron to'lov tizimlarini joriy etish imkoniyatlarini o'rganib, ushbu jarayonlar bank xizmatlari samaradorligini oshirishga xizmat qilishini asoslab berganlar [9]. Shuningdek, Sh. Olimov bank tizimining strukturasi va asosiy funksiyalarini tizimli yondashuv asosida yoritgan bo'lsa, A.A. Abduxalilov va M. Abdusamatov tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini tahlil qilib, ishlaymay qolgan kreditlar (NPL) ulushi hamda aktivlar sifati ko'rsatkichlarini baholaganlar [10].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida tahlil uchun bank tizimi rivojlanishini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar, o'sish sur'atlari, 2021-2025-yillarda aktivlar tarkibi, shuningdek, passivlar va kapital tuzilmasiga oid statistik ma'lumotlardan foydalanildi. Tadqiqotda dinamik tahlil usuli (yillar kesimida solishtirish), strukturaviy tahlil (ko'rsatkichlar ulushi bo'yicha) hamda indikatorlarning yalpi ichki mahsulotga nisbati asosida moliyaviy chuqurlashuv darajasini baholash metodlari qo'llanildi.

Shuningdek, 2017-yildan boshlab ayrim statistik ma'lumotlarning Milliy hisoblar tizimi (MHT-2008) uslubiyatiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgani va yangilangan metodologiya asosida shakllantirilgani tadqiqot jarayonida inobatga olindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston bank tizimi tarkibini ko'radigan bo'lsak, Markaziy bank tomonidan ro'yxatga olingan kredit tashkilotlari soni 2017-yildagi 103 tadan 2025-yilda 229 tagacha oshgan. Tijorat banklari soni ham 27 tadan 36 tagacha ko'paygan (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi rivojlanishini ifodalovchi ko'rsatkichlar (yil boshiga nisbatan)

Ko'rsatkichlar	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.	2025-y.
Markaziy bank tomonidan ro'yxatga olingan kredit tashkilotlari	103	104	121	147	160	177	199	204	229
shu jumladan, Tijorat banklari	27	28	29	30	32	33	32	35	36
Bank aktivlari, trln.so'm	84,1	166,6	214,4	272,7	366,1	444,9	556,7	652,2	769,3
Aktivlarning YaIM*ga nisbati, foizda	23,6	35,2	36,1	40,8	44,6	44,7	46,2	44,8	52,8**
O'z mablag'lari (kapital) trln. so'm	9,0	23,7	26,7	51,0	58,4	70,9	79,6	97,1	114,8
Kapitalning YaIM ga nisbati, foizda	2,5	5,0	4,5	7,6	7,1	7,12	6,6	6,7	7,8**



Kredit qo'yilmalari, mlrd.so'm	52,6	110,6	164,7	211,6	277,0	326,4	390,0	471,4	533,1
Kreditlarning YalM ga nisbati, foizda	14,8	23,3	27,7	31,7	33,8	32,8	32,4	32,4	36,7**
Kreditlarning bank aktivlaridagi ulushi, foizda	62,6	66,4	76,8	77,6	75,7	73,4	70,1	72,3	69,3

Bank aktivlari hajmi 2017-yildagi 84,1 trln so'mdan 2025-yilda 769,3 trln so'mga yetib, taxminan 9,1 baravar kengaygan. Shu bilan birga aktivlarning YalMga nisbati 23,6 foizdan 52,8 foizgacha ko'tarilishi kutilmoqda.

Bank tizimi kapitali 2017-yildagi 9,0 trln so'mdan 2025-yilda 114,8 trln so'mga yetgan (taxminan 12,8 baravar). Kapitalning YalMga nisbati esa 2,5 foizdan 7,8 foizgacha oshishi kutilmoqda.

Kredit qo'yilmalari 2017-yildagi 52,6 dan 2025-yilda 533,1 gacha oshgan bo'lib, kreditlarning YalMga nisbati 14,8 foizdan 36,7 foizgacha ko'tarilishi kutilmoqda. Kreditlarning bank aktivlaridagi ulushi 2020-yilda 77,6 foizgacha yetgan bo'lsa, 2025 yilda 69,3 foizni tashkil etgan.

2-jadval. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi faoliyati bo'yicha makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlari (01.01.2017 - 100%)

Ko'rsatkichlar	Yil boshiga nisbatan, foizlarda							
	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil
Kredit tashkilotlari va banklar tarkibiy bo'linmalari	138,8	133,7	46,2	57,9	71,5	86,9	100,8	104,7
Markaziy bank tomonidan ro'yxatga olingan kredit tashkilotlari	101,0	117,5	142,7	155,3	171,8	193,2	198,1	222,3
shu jumladan, Tijorat banklari (nobank kredit tashkilotlaridan tashqari)	103,7	107,4	111,1	118,5	122,2	118,5	129,6	133,3
Bank aktivlari	198,2	255,0	324,4	435,5	529,2	662,2	775,7	915,1
O'z mablag'lari (kapital)	263,4	296,2	566,6	647,8	787,4	883,4	1077,8	1274,5
Kredit qo'yilmalari	210,2	313,0	402,2	526,5	620,4	741,4	896,0	1013,3

2-jadvaldagi indekslar ham yuqoridagi dinamikani tasdiqlaydi: 2017-yilga nisbatan 2025-yilga kelib bank aktivlari 9 barobar, kapital 12 barobar, kredit qo'yilmalari esa 10 barobar ortgan.

3-jadvalga ko'ra, bank aktivlarining asosiy qismi kredit qo'yilmalari hissasiga to'g'ri keladi. 2021-yilda sof kredit qo'yilmalari 270 212,8 mlrd so'm (73,8%) bo'lgan bo'lsa, 2025-yilda 514 692,6 mlrd so'mga yetgan, biroq ulushi 66,9% gacha pasaygan.

3-jadval. Banklarning qo'yilmalar yo'nalishlari bo'yicha guruhlangan aktivlari tarkibi va ularning jamidagi ulushi

Aktivlar, mlrd. so'm	Yil boshiga nisbatan				
	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.	2025-y.
Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari	9 734,6	10 686,3	19 309,1	20 201,8	25 154,3
ulushi, foizda	2,7	2,4	3,5	3,1	3,3
Markaziy bankdagi mablag'lar	18 851,4	31 514,6	36 592,1	33 228,0	34 511,8
ulushi, foizda	5,1	7,1	6,6	5,1	4,5
Boshqa banklardagi mablag'lar -rezidentlar	13 146,0	13 302,5	17 423,7	24 368,5	29 175,9
ulushi, foizda	3,6	3,0	3,1	3,7	3,8
Boshqa banklardagi mablag'lar - norezidentlar	21 700,5	25 074,0	37 688,3	28 862,5	36 039,3
ulushi, foizda	5,9	5,6	6,8	4,4	4,7
Investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar	9 447,7	19 633,7	31 507,9	32 548,3	59 613,9



ulushi, foizda	2,6	4,4	5,7	5,0	7,7
Mijozlarning moliyaviy instrumentlar bo'yicha majburiyatlari	1 575,9	1 251,0	1 606,3	3 334,0	432,4
ulushi, foizda	0,4	0,3	0,3	0,5	0,1
Kredit qo'yilmalari, sof	270 212,8	316 382,4	378 909,2	457 847,1	514 692,6
ulushi, foizda	73,8	71,1	68,1	70,2	66,9
Asosiy vositalar, sof	8 314,2	11 031,9	14 242,9	19 874,9	24 955,8
ulushi, foizda	2,3	2,5	2,6	3,0	3,2
Aktivlar bo'yicha hisoblangan foizlar	7 881,6	9 387,1	12 295,3	19 249,8	23 835,8
ulushi, foizda	2,2	2,1	2,2	3,0	3,1
Bankning boshqa xususiy mulklari	1 131,2	1 339,4	3 065,5	4 483,5	6 558,9
ulushi, foizda	0,3	0,3	0,6	0,7	0,9
Boshqa aktivlar	4 125,1	5 319,6	4 105,8	8 158,7	14 359,5
ulushi, foizda	1,1	1,2	0,7	1,3	1,9
Jami aktivlar	366 121,1	444 922,5	556 746,3	652 157,1	769 330,4

Aktivlar tarkibida diversifikatsiya jarayoni kuzatiladi: investitsiyalar va qimmatli qog'ozlar hajmi 2021-yildagi 9 447,7 mlrd so'mdan 2025-yilda 59 613,9 mlrd so'mga oshib, ulushi 2,6% dan 7,7% gacha ko'tarilgan.

Likvid aktivlar (kassadagi naqd pul, Markaziy bankdagi mablag'lar va boshqa banklardagi mablag'lar) hajmi ham o'sib borgan. Jumladan, kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari 2021-yildagi 9 734,6 mlrd so'mdan 2025-yilda 25 154,3 mlrd so'mga yetgan.

#### 4-jadval. Mablag' manbalari bo'yicha guruhlangan banklar passivlarining tarkibiy tuzilishi

Passivlar, mlrd.so'm	Yil boshiga nisbatan				
	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.	2025-y.
Majburiyatlar					
Depozitlar	114 746,9	156 189,8	216 737,5	241 686,6	308 692,3
ulushi, foizda	37,3	41,8	45,4	43,5	47,2
Markaziy bankning hisobvaraqlari	1 089,2	708,8	784,3	1 345,1	1 727,4
ulushi, foizda	0,4	0,2	0,2	0,2	0,3
Boshqa banklarning mablag'lari - rezidentlar	13 001,4	13 288,6	18 780,8	24 577,0	25 007,9
ulushi, foizda	4,2	3,6	3,9	4,4	3,8
Boshqa banklarning mablag'lari - norezidentlar	3 175,4	4 670,8	22 798,5	20 073,5	16 428,5
ulushi, foizda	1,0	1,2	4,8	3,6	2,5
Olingan kreditlar va lizing	151 704,0	173 750,3	186 614,5	224 350,7	234 667,5
ulushi, foizda	49,3	46,5	39,1	40,4	35,9
Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar	9 523,0	10 612,7	10 915,2	13 160,6	29 094,9
ulushi, foizda	3,1	2,8	2,3	2,4	4,4
Subordinar qarzlari	3 999,5	4 248,5	6 619,3	9 653,0	11 298,5
ulushi, foizda	1,3	1,1	1,4	1,7	1,7
To'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar	3 714,8	3 960,0	5 487,1	8 106,5	9 823,4
ulushi, foizda	1,2	1,1	1,1	1,5	1,5
Boshqa majburiyatlar	6 815,6	6 575,4	8 443,6	12 124,9	17 797,6
ulushi, foizda	2,2	1,8	1,8	2,2	2,7




Jami majburiyatlar	307 769,9	374 004,9	477 180,8	555 077,9	654 538,0
Kapital					
Ustav kapitali	44 655,8	54 760,0	59 856,7	68 643,0	83 665,7
ulushi, foizda	76,5	77,2	75,2	70,7	72,9
Qo'shimcha kapital	434,6	675,5	997,5	1 338,8	1 463,7
ulushi, foizda	0,7	1,0	1,3	1,4	1,3
Zaxira kapitali	5 205,9	8 452,2	7 320,6	11 152,6	13 067,4
ulushi, foizda	8,9	11,9	9,2	11,5	11,4
Taqsimlanmagan foyda	8 055,0	7 029,9	11 390,6	15 944,8	16 595,7
ulushi, foizda	13,8	9,9	14,3	16,4	14,5
Jami kapital	58 351,3	70 917,6	79 565,4	97 079,2	114 792,4
Jami passivlar	366 121,1	444 922,5	556 746,3	652 157,1	769 330,4

4-jadval ma'lumotlari bank tizimi resurs bazasida depozitlarning roli kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Depozitlar hajmi 2021-yildagi 114 746,9 mlrd so'mdan 2025-yilda 308 692,3 mlrd so'mga oshgan, ulushi esa 37,3% dan 47,2% gacha ko'tarilgan.

Aksincha, olingan kreditlar va lizing (qarz mablag'lari) ulushi 2021-yildagi 49,3% dan 2025-yilda 35,9% gacha kamaygan. Bu resurs bazasining nisbatan barqaror manbalar (depozitlar) hisobiga kengayayotganini anglatadi.


Kapital tarkibida ustav kapitali yetakchi: 2021-yilda 44 655,8 mlrd so'm (76,5%) bo'lgan ustav kapitali 2025-yilda 83 665,7 mlrd so'mga yetgan va ulushi 72,9% ni tashkil etgan. Taqsimlanmagan foyda ham 2021-yildagi 8 055,0 mlrd so'mdan 2025-yilda 16 595,7 mlrd so'mga oshgan.



1-rasm. Muammoli kreditlarning yillar kesimida o'zgarishi

1-rasmda 2020-2025-yillarda kreditlar hajmi oshib borishi fonida muammoli kreditlar ulushi ham o'zgaruvchan tendensiyaning namoyon etadi. Diagrammada 2020-yilda jami kreditlar 211 580,5 mlrd so'm bo'lib, muammoli kreditlar ulushi 1,5% atrofida ko'rsatilgan. 2022-yilda muammoli kreditlar ulushi 5,2% gacha ko'tarilgani, keyingi yillarda esa pasayib, 2025-yilda taxminan 4% ga yaqinlashgani kuzatiladi.


Muammoli kreditlar ulushining tebranishi kredit risklarini boshqarish, zaxiralalar (provizion) shakllantirish va portfelni diversifikatsiya qilish masalalarini doimiy e'tiborda ushlab zarurligini ko'rsatadi.



2-rasm. Bank tizimi aktivlar rentabelligi (ROA) dinamikasi

2-rasmda bank tizimining aktivlar rentabelligi (ROA) va soliq to'langunga qadar sof foydasi dinamikasi aks etgan. 2020-yilda soliqdan oldingi sof foyda 6 960,6 mlrd so'm bo'lib, ROA 2,2% ni tashkil etgan. 2021-yilda foyda 5 350,6 mlrd so'mga tushib, ROA 1,3% gacha pasaygan. 2022-2023-yillarda foyda va ROA ko'rsatkichlari sezilarli yaxshilanib (2023-yilda 15 155,2 mlrd so'm va ROA 2,6%), 2024-yilda qayta pasayish kuzatilgan (9 654,5 mlrd so'm va ROA 1,4%).

Rentabellikdagi bunday tebranishlar foiz marjasi, kredit portfeli sifati, provizion xarajatlari, valyuta va likvidlik risklari, shuningdek, umumiy makroiqtisodiy sharoitlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.



3-rasm. Bank tizimi kapital rentabelligi (ROE) dinamikasi

3-rasm bo'yicha kapital rentabelligi (ROE) ham shunga yaqin dinamikani ko'rsatadi: 2020-yilda ROE 10,3% bo'lgan bo'lsa, 2021-yilda 6,1% gacha tushgan. 2022-2023-yillarda ROE mos ravishda 13,3% va 14,2% gacha ko'tarilgan, 2024-yilda esa 6,6% gacha pasaygan.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

2017–2025-yillar kesimida O'zbekiston bank tizimining asosiy ko'rsatkichlari sezilarli darajada kengaydi: banklar aktivlari va kredit qo'yilmalari hajmi bir necha baravar oshdi, shuningdek, aktivlarning yalpi ichki mahsulotga nisbati barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etdi. Bu holat bank tizimining iqtisodiyotdagi moliyaviy vositachilik rolini kuchayganini ko'rsatadi.

2021-2025-yillarda aktivlar tarkibida kreditlar yetakchi o'rinni saqlab qolayotgan bo'lsa-da, ularning umumiy ulushi nisbatan qisqarib, investitsiyalar va qimmatli qog'ozlar ulushining oshgani bank aktivlari portfelida diversifikatsiya jarayoni kuchayib borayotganidan dalolat beradi.

Resurs bazasi tarkibida depozitlar ulushining izchil ortib borishi va qarz mablag'lari ulushining qisqarishi bank tizimi moliyalashtirish manbalarining barqarorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, kredit risklarining saqlanib qolishi hamda rentabellik ko'rsatkichlaridagi tebranishlar banklar faoliyatida risklarni samarali boshqarish va operatsion samaradorlikni oshirish masalalarining dolzarbligini ko'rsatmoqda.

Mazkur tahlil natijalaridan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

1. muammoli kreditlarni erta aniqlash va ularni qayta restrukturizatsiya qilish mexanizmlarini takomillashtirish;
2. depozit bazasini uzoq muddatli va barqaror resurslar hisobiga kengaytirish;
3. aktivlar portfelini diversifikatsiya qilish jarayonida risk va daromadlilik nisbatini qat'iy nazorat qilish;
4. ROA va ROE ko'rsatkichlarining barqarorligini ta'minlash maqsadida xarajatlarni optimallashtirish hamda komissiya daromadlari ulushini oshirishga qaratilgan choralarni kuchaytirish.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi O'RQ-582-sonli Qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/-4590452>
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-580-sonli Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/-4581969?ONDATE=22.12.2024%2000>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi "2011-2015 yillarda Respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida" PQ-1438-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-1707681>
4. 2015-yil 6-iyuldagi "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi 2693-sonli Nizom.
5. 2015-yil 13-avgustdagi "Tijorat banklarining likvidligini boshqarishga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi 2709-sonli Nizom.
6. 2015-yil 14-iyuldagi "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi 2696-sonli Nizom.
7. I.Toymukhamedov "Formation and Development of Banking Ecosystems in Uzbekistan" Monografiya. 2025
8. Tashpulatova L.M., Tonyantsa G.S., & Djuraeva R.A. "Bank tizimida innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar: Fintech va elektron to'lov tizimlarini joriy etish imkoniyatlari" JIDU/ Monografiya. 2020.
9. A.A. Abdulkhalilov "Banking system of the Republic of Uzbekistan" International scientific-online conference.
10. Abdullayev Sh.S. Tijorat banklari faoliyati samaradorligini baholashning nazariy va amaliy jihatlari. T.: Fan va texnologiya, 2019.
11. I.R.Tovmuxamedov, R.R.Tojiyev, N.G'.Sattorova, Xalqaro bank ishi va moliya. – T.: O'zbekiston, 2021.
12. Quarterly Federal deposit insurance corporation 2025 volume 19, number 1, [www.fdic.gov/quarterly-banking-profile/subscription](http://www.fdic.gov/quarterly-banking-profile/subscription)



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2025. № 12

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>